



Transport va avtomobilsozlik sohalarida  
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha  
tarmoq kengashi

# Avtomobil yo'llari sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Avtomobil yo‘llari sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Transport va avtomobilsozlik sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

## TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-008



### 1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va MMKga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, yo'l xo'jaligi tarmog'i bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi yo'l xo'jaligi tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Yo'l xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi yo'llar, ko'priklar, transport inshootlari va aerodromlarni qurish, foydalanish va ta'mirlash bo'yicha xodimlarning yuqori sifatli kasbiy tayyorgarligi, uning mehnat bozori talablariga muvofiqligi, ta'lim xizmatlarining yuqori darajasi bo'lishini ta'minlash, ta'lim tizimi, mehnat bozori va jamiyati o'rtasida o'zaro huquqiy munosabatlarning o'rnatilishiga erishish yo'l xo'jaligi tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun yo'l xo'jaligi tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir)) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

avtomobil yo'li – transport vositalarining xavfsiz, uzluksiz va samarali harakatini ta'minlash maqsadida barpo etilgan muhandislik inshootlari majmui.

avtomobil yo'llari tarmog'i – mamlakat hududidagi davlat ahamiyatiga molik, mahalliy va xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari yig'indisi.

avtomobil yo'lini loyihalash – yo'lning trassasi, konstruktiv elementlari va inshootlarini texnik-iqtisodiy asoslash va loyihaviy hujjatlarni tayyorlash jarayoni.

davlat yo'llari – respublika yoki viloyat ahamiyatiga ega avtomobil yo'llari, ularning ekspluatatsiyasi va ta'miri davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

deformatsiya – yo‘l qoplamasi yoki asos qatlamining yuklama ta‘sirida shakl o‘zgarishi jarayoni.

ekspluatatsiya – yo‘l va yo‘l inshootlarining foydalanish davridagi texnik holatini saqlash, xizmat ko‘rsatish va xavfsiz harakatni ta‘minlash bo‘yicha ishlar majmui.

ekspertiza – tarmoq malaka ramkasi yoki kasbiy standart loyihasini baholash, taklif va xulosalar berish jarayoni.

geodezik ishlar – yo‘l trassasini joyda aniqlash, o‘lchash va rejalashtirish uchun bajariladigan o‘lchov ishlar majmui.

gidrotexnik inshoot – suv oqimini yo‘naltirish, to‘siqlash yoki chiqarish uchun mo‘ljallangan yo‘l infratuzilmasi elementi (masalan, ko‘prik, lotok, truba).

ishlab chiqarish xavfsizligi – yo‘l qurilishida mehnat jarayonida inson hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

injenerlik-geologik tadqiqotlar – yo‘l qurilishi joyining tabiiy-geologik sharoitlarini o‘rganish, tuproq tarkibi, suv sathi va barqarorlikni aniqlash ishlari.

kasbiy kompetensiya – xodimning o‘z kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga egaligini ifodalovchi majmua.

ko‘prik – avtomobil yo‘lining suv to‘siqlari yoki boshqa to‘siqlar ustidan o‘tishini ta‘minlovchi muhandislik inshooti.

konstruksiya (yo‘l qoplamasi) – yo‘lning qatnov qismini tashkil etuvchi qatlamlar tizimi (asos, qoplama, taglik).

kuzatuv (monitoring) – yo‘lning texnik holatini tizimli ravishda kuzatish, nosozliklarni aniqlash va qayd etish jarayoni.

loyihauiy hujjat – avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish yoki ta‘mirlash uchun ishlab chiqiladigan texnik hujjatlar to‘plami.

loiyhachi tashkilot – yo‘l loiyhalarini ishlab chiqish, hisoblash va ekspertizaga tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi tashkilot.

malaka darajasi – milliy malaka ramkasida belgilangan kasbiy tayyorgarlikning murakkablik va mustaqillik darajasini ifodalovchi bosqich.

monitoring tizimi – avtomobil yo‘llari holatini masofadan kuzatish, tahlil qilish va boshqarish uchun yaratilgan axborot tizimi.

nishablik – yo‘lning gorizontal sathga nisbatan egilish burchagi, harakat xavfsizligi va suv oqishini ta‘minlash uchun belgilanadi.

qoplama turi – avtomobil yo‘lining ustki qatlamining materiali (asfaltbeton, sementbeton, shag‘al, aralash).

qurilish bosqichlari – yo‘lni qurishning tayyorgarlik, asos, qoplama va yakuniy pardoqlash jarayonlari majmui.

smeta hujjatlari – yo‘l qurilishi yoki ta‘miri uchun zarur moliyaviy xarajatlar hisob-kitobini o‘z ichiga olgan rasmiy hujjatlar.

sifat nazorati – qurilish ishlari va materiallar sifatining texnik talablar va standartlarga muvofiqligini aniqlash jarayoni.

ta'mirlash ishlari – yo'l elementlarini tiklash, yangilash va xizmat muddatini uzaytirish maqsadidagi ishlar majmui.

texnik xizmat ko'rsatish – yo'l va inshootlarning ishlashini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar majmui.

transport oqimi – ma'lum vaqt birligida yo'ldan o'tgan transport vositalari soni.

xavfsizlik zonasi – yo'l bo'ylab joylashgan, transport va piyodalar xavfsizligini ta'minlash uchun ajratilgan hudud.

xizmat muddati – yo'lning yoki uning elementi samarali ishlash davri.

yo'l qoplamasi – transport vositalari harakatlanadigan ustki qatlam, yukni yo'l asosiga uzatadi.

yo'l qurilishi – loyihaga muvofiq ravishda yo'l va yo'l inshootlarini barpo etish jarayoni.

yo'l infratuzilmasi – yo'l, ko'prik, tunnellar, belgilash va yoritish tizimlari kabi inshootlar majmui.

yo'l belgisi – harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'rnatilgan axborot va ogohlantiruvchi belgi.

Mazkur tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos bo'lgan qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabr "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4545-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabr "O'zbekiston Respublikasining 2021 – 2023-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4937-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabr "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori;

Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevral "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4954-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabr "O'zbekiston Respublikasining avtomobil yo'llari tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5890-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-369-son Qarori.

Asosiy qisqartmalar:  
MMR – Milliy malakalar ramkasi;  
TMR – Tarmoq malaka ramkasi;  
IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;  
MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;  
AY – avtomobil yo‘li;  
GPS – Global joylashuv tizimi (Global Positioning System);  
FFD – Og‘irlik tushirish deflektometri (Falling Weight Deflectometer);  
FIDIC – Muhandis-konsultantlar xalqaro federatsiyasi (Fédération internationale des ingénieurs-conseils);  
GIS – Geographic information system;  
BIM – Building information modeling;  
UAV – Unmanned aerial vehicle.

## **2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti**

Avtomobil yo‘llari sohasi – mamlakatning transport tizimida muhim o‘rin tutadigan, iqtisodiy rivojlanish va aholi harakatchanligini ta‘minlovchi zamonaviy muhandislik sohasidir. U avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va ekspluatatsiya qilish, shuningdek, yo‘l infratuzilmasi elementlarini rivojlantirish hamda ularning xavfsizligini ta‘minlashni o‘z ichiga oladi.

Sohadagi faoliyat avtomobil yo‘llari tarmog‘ini samarali boshqarish, harakat xavfsizligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va zamonaviy qurilish texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan. Bu yo‘nalish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, tovar va xizmatlar aylanmasini kengaytirish, turistik va xalqaro transport aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avtomobil yo‘llari sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar – yo‘l muhandislari, loyihachilar, qurilish ustalari, geodezistlar, mexaniklar, laboratoriya muhandislari va texnik xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislar hisoblanadi. Ular qurilish-montaj ishlari, materiallar va konstruksiyalar sifatini nazorat qilish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, yo‘l-inshootlar ekspluatatsiyasi va ta‘mirlash jarayonlarini amalga oshiradilar.

Sohadagi faoliyat davlat standartlari, qurilish me‘yor va qoidalari, hamda xalqaro transport tashkilotlarining talablariga asoslanadi. Bu esa yuqori sifat, barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlovchi tizimli yondashuvni shakllantiradi.

Avtomobil yo‘llari sohasidagi Tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turi uchun ishlab chiqilgan:

Seksiya nomi:

F – seksiya Qurilish.

M – seksiya ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar

O'zbekiston Respublikasida Avtomobil yo'llari sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT – 2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

| T/r | Seksiya                                               | Bo'lim                                        | Guruh                                                                                                  | Sinf                                                                                         | Kichik sinf                                                                                    |
|-----|-------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1   | F – seksiya<br>Qurilish                               | 42 Fuqarolik<br>obyektlarini<br>qurish        | 42.1 Avtomobil<br>yo'llari va temir<br>yo'llar qurish                                                  | 42.11 Yo'llar va<br>shosselar qurish                                                         | 42.11.0 Yo'llar va<br>shosselar qurish                                                         |
| 2   |                                                       |                                               |                                                                                                        | 42.13 Ko'priklar<br>va tunnellar<br>qurish                                                   | 42.13.0<br>Ko'priklar va<br>tunnellar qurish                                                   |
| 3   |                                                       |                                               | 42.9 Boshqa<br>muhandislik<br>inshootlari<br>qurish                                                    | 42.99 Boshqa<br>toifalarga<br>kiritilmagan<br>boshqa<br>muhandislik<br>inshootlari<br>qurish | 42.99.0 Boshqa<br>toifalarga<br>kiritilmagan<br>boshqa<br>muhandislik<br>inshootlari<br>qurish |
| 4   |                                                       | 43<br>Ixtisoslashtirilgan<br>qurilish ishlari | 43.1 Mavjud<br>inshootlarni<br>buzish va qurilish<br>uchun<br>maydonchalar<br>tayyorlash               | 43.11 Binolarni<br>qismlarga<br>ajratish va buzish                                           | 43.11.0 Binolarni<br>qismlarga<br>ajratish va buzish                                           |
| 5   |                                                       |                                               |                                                                                                        | 43.13 Qidiruv<br>burg'ulash                                                                  | 43.13.0 Qidiruv<br>burg'ulash                                                                  |
| 6   |                                                       |                                               | 43.9 Boshqa<br>ixtisoslashtirilgan<br>qurilish ishlari                                                 | 43.99 Boshqa<br>toifalarga<br>kiritilmagan<br>boshqa                                         | 43.99.0 Boshqa<br>toifalarga<br>kiritilmagan<br>boshqa                                         |
| 7   |                                                       |                                               |                                                                                                        | ixtisoslashtirilgan<br>qurilish ishlari                                                      | ixtisoslashtirilgan<br>qurilish ishlari                                                        |
|     | M –seksiya<br>Ko'chmas<br>mulk bilan<br>operatsiyalar | 68 Ko'chmas<br>mulk bilan<br>operatsiyalar    | 68.1 O'z mulki<br>bilan ko'chmas<br>mulk bilan ishlar<br>va qurilish<br>loyihalarini<br>ishlab chiqish | 68.12 Qurilish<br>loyihalarini<br>ishlab chiqish                                             | 68.12.0 Qurilish<br>loyihalarini<br>ishlab chiqish                                             |

TMR quyidagi kasbiy guruhlar va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

| T/r | Mashg'ulot guruhi kodi | Mashg'ulot guruhi nomi                                                                                                          |
|-----|------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | 11122                  | Yuqori lavozimli davlat xizmati xizmatchilari                                                                                   |
| 2.  | 11200                  | Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari                                                                 |
| 3.  | 13211                  | Ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari                                         |
| 4.  | 13230                  | Qurilishda ishlab chiqarish va foydalanish uchun tarkibiy bo'linmalar rahbarlari                                                |
| 5.  | 13245                  | Temir yo'l transporti sohasida bo'linmalar rahbarlari                                                                           |
| 6.  | 13242                  | Avtomobil transporti sohasida bo'linmalar rahbarlari                                                                            |
| 7.  | 21422                  | Transport obyektlari qurilishi bo'yicha muhandislar                                                                             |
| 8.  | 24112                  | Buxgalterlar                                                                                                                    |
| 9.  | 24121                  | Moliya va investitsiya masalalari bo'yicha professional-mutaxassislar                                                           |
| 10. | 24232                  | Kadrlar va inson resurslari bo'yicha professional-mutaxassislar                                                                 |
| 11. | 24323                  | Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha professional-mutaxassislar                                                                   |
| 12. | 26211                  | Arxivchilar                                                                                                                     |
| 13. | 43233                  | Quruqlik transporti xodimlari                                                                                                   |
| 14. | 71120                  | G'isht teruvchilar                                                                                                              |
| 15. | 71190                  | Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan qurilish va turdosh kasblar ishchilari, b.g.k.                                     |
| 16. | 72311                  | Mexanik transport vositalari dvigatellari va transmissiyasini ta'mirlash bo'yicha avtomexaniklar va chilangarlar                |
| 17. | 83421                  | Yer qazish va transheya mashinalari operatorlari                                                                                |
| 18. | 83422                  | Burg'ilash mashinalari operatorlari                                                                                             |
| 19. | 83423                  | Asfalt va beton ishlari mashinalari operatorlari                                                                                |
| 20. | 83424                  | Yo'l ta'miri va saqlash mashinalari operatorlari                                                                                |
| 21. | 83429                  | Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan yer qazuvchi va shunga o'xshash mashinalarning mashinistlari, b.g.k.                 |
| 22. | 83431                  | Kran va ko'tarish mashinalari operatorlari                                                                                      |
| 23. | 83432                  | Ortish-tushirish va transport qurilmalari operatorlari                                                                          |
| 24. | 83439                  | Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan kranlar, ko'tarish mashinalari va ortish-tushirish qurilmalari mashinistlari, b.g.k. |

### 3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PF-4954-son "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2776-son O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatlarini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga asosan tashkil topgan. Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan Xalqaro moliya institutlari mablag'lari ishtirokida umumiy

foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish investitsiya loyihalari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4937-sonli qaroriga asosan joriy yilda jami 154,0 mln. doll. mablag'lar o'zlashtirilishi belgilangan. Shu jumladan, quyidagi loyihalar doirasida qurilish-montaj ishlari amalga oshiriladi:

- A-380 "Guzar-Buxoro-Nukus-Beineu" avtomobil yo'lining 228-315 km qismini (87 km) rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasida – 40,0 mln. AQSH doll. miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilishi belgilangan (Osiyo taraqqiyot banki qarz mablag'i);

- "Toshkent, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlaridagi mahalliy avtomobil yo'llarini rivojlantirish" doirasida – 35,0 mln. AQSH doll. miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilishi belgilangan (Jahon banki guruhi, XTA);

- A373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 173-176 km qismlarini rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasida – 1,4 mln. AQSH doll. miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilishi belgilangan (Osiyo taraqqiyot banki qarz mablag'i, A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 116-190 km qismini rekonstruksiya qilish loyihasidan iqtisod qilingan mablag'lar doirasida amalga oshirilmoqda);

- M39 "Olmaty-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil yo'lining 1395-1400 km va 1410-1426 km (21 km) qismlarini rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasida – 18,0 mln. AQSH doll. miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilishi belgilangan (Islom taraqqiyot banki qarz mablag'i, M39 "Olmaty-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil yo'lining 1330-1395 km, 1400-1410 km va 1426-1451 km (jami 100 km) qismini rekonstruksiya qilish ob'ekti doirasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobiga mazkur obyekt qurilishi belgilab berilgan. Ushbu obyekt Surxondaryo viloyatining Boysun, Sherobod va Angor tumanlaridan o'tadi;

- 4R87 "G'uzor-Chim-Ko'kdala" avtomobil yo'lining 38-73 km qismini (35 km) rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasida – 15,0 mln. AQSH doll. miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilishi belgilangan (Saudiya taraqqiyot jamg'armasi va Quvayt Arab iqtisodiy taraqqiyot fondi qarz mablag'i).

- A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beineu" avtomobil yo'lining 964-1204 km qismini (240 km) rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasida – 34,6 mln. AQSH doll. miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilishi belgilangan (Osiyo taraqqiyot banki qarz mablag'i);

- A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beineu" avtomobil yo'lining 150-228 km qismini (78 km) rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasida – 10,0 mln. AQSH doll. miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilishi belgilangan.

Bugungi kunda yo'l xo'jaligi sohasida 24 mingdan ortiq xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 32 foizini oliy ma'lumotli xodimlar, 68 foizini o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar tashkil etadi.

Hozirgi kunda yo'l xo'jaligida respublikaning 10 ta mahalliy oliy ta'lim muassasalari hamda 2 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari, shuningdek 8

ta professional ta'lim muassasalari kadrlar tayyorlab bermoqda. Avtomobil yo'llari tarmog'ida yiliga o'rtacha 3 mingdan ziyod xodimning malakasi oshiriladi. Shundan 15 foizi rahbar xodimlar, 40 foizi muhandis-texnik xodimlar va 45 foizi ishchi-xizmatchi xodimlar hissasiga to'g'ri keladi. Har yili o'rtacha 150 dan ortiq xodim xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytadi.

Avtomobil yo'llari xo'jaligida yiliga o'rtacha 550 dan ortiq ta'lim muassasalarining bitiruvchilari ishga qabul qilinadi, ularning 50 foizini oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari va 50 foizini professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari tashkil etadi.

O'tgan 2025-yilda Avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ta'mirlash bo'yicha 25 ta standart va 15 ta me'yoriy hujjatlar ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ishlab chiqildi.

Mavjud asfalt beton zavodlarida avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash ishlari uchun yangi turdagi chaqiqto'sh mastikali asfalt beton ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va buning natijasida yo'llarni ta'mirlash muddati 1,5 barobargacha oshirilishiga erishilmoqda.

Loyiha hujjatlarini ishlab chiqilishida diagnostika qilish, yo'l qoplamasining fizik xossalari baholash, yer osti kommunikatsiya tarmoqlari mavjudligini qoplamani buzmaganda tekshirish maqsadida Jahon bankining grant mablag'lari hisobiga zamonaviy raqamlashtirilgan 3D mobil skaneri, Deflektometr FFD 8012, Georadar RIS-HiPave rusumli va boshqa maxsus texnikalar xarid qilindi.

Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, ishlarni bajarish va ularni qabul qilib olishning yangi "hajm uslubi" hamda yakunlangan obyektlar bo'yicha uch yillik kafolatli xizmat qilish mexanizmlari joriy etildi.

Avtomobil yo'llarining texnik holatini raqamlashtirgan holda kunlik nazorat qilish dasturi ishlab chiqilib, avtomobil yo'llarining Yagona onlayn ma'lumotlar bazasi, yo'llarning texnik holati va ulardagi aktivlarni onlayn ravishda monitoring qilib borish bo'yicha maxsus dastur yaratildi.

Bunda, yo'llar holatining barcha 42 ta texnik ko'rsatkichlari (avval baholanadigan 10 ta ko'rsatkichdan 4 barobar ko'p) onlayn ravishda Yagona onlayn ma'lumotlar bazasiga kiritib borilishi natijasida yo'llarning texnik holatini onlayn baholanishi hamda ta'mirlash ishlarini shaffof va aniq rejalashtirilishi yo'lga qo'yildi.

Yuk avtomobillarining harakat davrida ularning vazn va hajm parametrlarini avtomatik nazorat qiluvchi WIM tizimi uchun dastur ishlab chiqildi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasining korxonalaridagi maxsus mashina-mexanizmlar va avtotransport vositalari faoliyati nazoratini raqamlashtirish maqsadida 3000 donadan ortiq yo'l texnikalariga "GPS" kuzatuv moslamalari o'rnatildi hamda yagona elektron onlayn bazaga kiritildi. Bunda, texnikalar va haydovchilarni doimiy nazorat qilish imkoniyatlari yaratildi.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda "Toshkent – Andijon" yo'nalishidagi avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovonidan o'tgan 100 km qismida intellektual

transport tizimini joriy etish ishlari olib borilmoqda. Aytish mumkinki, bunday tizim dunyoning sanoqli davlatlarida mavjud.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatini to'liq raqamlashtirish maqsadida Qo'mita tarkibidagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" tomonidan "Yagona elektron platforma"ni yaratish bo'yicha ishlar yakunlanmoqda.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida avtomobil yo'llarini rejalashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, ekspluatatsiya qilish hamda moliyalashtirish jarayonlari markazlashtirilgan holda muvofiqlashtiriladigan tizim joriy etildi. Natijada yo'l xo'jaligi sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, infratuzilma obyektlarining sifatini oshirish va investitsiya loyihalarini shaffof boshqarish imkoniyatlari yaratildi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan xalqaro moliya institutlari mablag'lari ishtirokida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda PQ-4937-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2021–2023-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan joriy yilda jami 154,0 mln AQSH dollari miqdoridagi mablag'larni o'zlashtirish rejalashtirilgan (1-rasmga qarang).

Mazkur mablag'lar quyidagi yirik infratuzilma loyihalari doirasida yo'naltirilmoqda:

Ushbu loyihalar nafaqat transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga, balki hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, tranzit salohiyatini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda yo'l-transport hodisalari xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda yo'l xo'jaligi sohasida 24 mingdan ortiq xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ularning:

Bugungi kunda yo'l xo'jaligi sohasida 24 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritmoqda. Ularning 32 foizini oliy ma'lumotli, 68 foizini esa o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tashkil etadi. Kadrlar tayyorlash tizimi doirasida respublikaning 10 ta mahalliy oliy ta'lim muassasasi, 2 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali hamda 8 ta professional ta'lim muassasasi soha uchun mutaxassislar yetishtirmoqda. Har yili 3 mingdan ortiq xodim malaka oshiradi, shundan 15 foizi rahbar xodimlar, 40 foizi muhandis-texnik xodimlar va 45 foizi ishchi-xizmatchilar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, yiliga 150 dan ortiq xodim xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytadi. Bundan tashqari, har yili yo'l xo'jaligi korxonalariga 550 nafardan ortiq bitiruvchi ishga qabul qilinib, ularning 50 foizini oliy ta'lim muassasalari, 50 foizini esa professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari tashkil etadi. Bu jarayon sohada uzluksiz kadrlar almashinuvi va yosh mutaxassislarni jalb etish orqali mehnat bozoriga moslashuvchanlikni ta'minlamoqda.


2025-yilda avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ta'mirlash bo'yicha 25 ta standart hamda 15 ta me'yoriy hujjat ilg'or xorijiy tajribalar asosida qayta ishlab chiqildi. Mavjud asfalt-beton zavodlarida chaqiqtoosh mastikali asfalt-beton ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, buning natijasida yo'llarning xizmat muddati 1,5 barobargacha oshirildi. Loyiha hujjatlarini tayyorlashda 3D mobil skanerlar, Deflektometr FFD 8012, Georadar RIS-HiPave kabi zamonaviy texnikalar Jahon banki grant mablag'lari hisobiga xarid qilinib, ular yo'l qoplamasining fizik xossalarini baholash, yer osti kommunikatsiyalarini buzmasdan aniqlash hamda rekonstruksiya xarajatlarini optimallashtirish imkonini bermogda.

Avtomobil yo'llarining texnik holatini monitoring qilish maqsadida Yagona onlayn ma'lumotlar bazasi hamda yo'l holatini real vaqt rejimida baholash dasturi joriy etildi. Yo'llarning 42 ta texnik ko'rsatkichi doimiy ravishda mazkur bazaga kiritilib, ta'mirlash ishlari shaffof va aniq rejalashtirilmoqda. Shuningdek, yuk avtomobillarining vazn va hajm parametrlarini avtomatik o'lchovchi WIM tizimi joriy etildi hamda 3000 dan ortiq maxsus texnika va transport vositalariga GPS kuzatuv qurilmalari o'rnatilib, ularning faoliyati doimiy nazoratga olindi. Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda "Toshkent–Andijon" yo'nalishidagi Qamchiq dovoni bo'ylab 100 km masofada intellektual transport tizimi joriy etilmoqda.

Qo'mita faoliyatini to'liq raqamlashtirish maqsadida "Yagona elektron platforma" ishlab chiqilib, boshqaruv, monitoring, moliyalashtirish va texnik nazorat jarayonlari yagona tizimga integratsiya qilinmoqda.

Avtomobil yo'llari xo'jaligi O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishi, hududlararo integratsiyasi, logistika tizimining barqaror ishlashi, aholining ijtimoiy harakatchanligi hamda tashqi savdo aloqalarini kengaytirishda muhim infratuzilma tarmog'i hisoblanadi. Mazkur tarmoq mamlakat hududlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi, ishlab chiqarish va xizmatlar bozorlarining kengayishiga xizmat qiladi hamda tranzit salohiyatni oshirish orqali respublikaning mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy makondagi o'rnini mustahkamlaydi.

Avtomobil yo'llari xo'jaligi sohasini isloh qilish bo'yicha huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PF–4954-son "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda 2017-yil 14-fevraldagi PQ–2776-son "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan belgilab berildi. Mazkur hujjatlar asosida avtomobil yo'llari sohasida yagona boshqaruv tizimi shakllantirilib, infratuzilmani rejalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, moliyalashtirish va texnik nazorat qilish jarayonlari markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan tizim yaratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda PQ–4937-son qarori bilan investitsiya dasturlarini amalga oshirish bo'yicha yo'l xo'jaligiga katta hajmdagi mablag'lar yo'naltirildi.



1-rasm . Avtomobil yo'llari sohasida 2025-yilda erishilgan natijalar.

Avtomobil yo'llari tarmog'ining iqtisodiy va strategik ahamiyati bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, mazkur tarmoq hududlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar va mehnat resurslarining erkin harakatini ta'minlab, ichki bozor integratsiyasini kuchaytiradi. Ikkinchidan, xalqaro va mintaqaviy transport yo'laklarining rivojlanishi orqali respublikaning tranzit salohiyatini oshiradi hamda tashqi savdo logistikasi samaradorligini ta'minlaydi. Uchinchidan, chekka va qishloq hududlarini iqtisodiy markazlar bilan bog'lab, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga, aholining bandligi va turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi. To'rtinchidan, yo'l infratuzilmasi favqulodda vaziyatlarda,

mudofaa, tibbiy xizmat va tezkor harakat talab qilinadigan sohalar uchun strategik ahamiyatga ega.

Tarmoq boshqaruvi markaziy darajada Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Qo'mita avtomobil yo'llarini rejalashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ekspluatatsiya qilish, texnik holatini nazorat qilish, investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha vakolatlarga ega. Hududiy darajada viloyat va tuman yo'l tashkilotlari orqali yo'llarning ekspluatatsiyasi, joriy va kapital ta'mirlash, texnik monitoring va sifat nazorati amalga oshiriladi. Moliyalashtirish manbalari sifatida respublika byudjeti, Respublika yo'l jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Saudiya va Quvayt fondlari mablag'lari, shuningdek davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keng qo'llanilmoqda.

Investitsiya faoliyati tarmoq rivojining muhim drayveri hisoblanadi. Investitsiya dasturlari doirasida xalqaro va respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilinib, transport oqimlarining tezligi va xavfsizligi oshirilmoqda. Magistral yo'llarning kengaytirilishi va modernizatsiyasi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, yuk tashish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy yo'llarni rivojlantirish orqali qishloq hududlarining iqtisodiy faolligi oshirilmoqda, aholining xizmatlarga va bozorlarga kirish imkoniyati kengaytirilmoqda.

Kadrlar salohiyati tarmoqning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda avtomobil yo'llari xo'jaligida 24 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritadi, ularning qariyb uchdan bir qismi oliy ma'lumotli mutaxassislar, qolgan qismi o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlardan iborat. Kadrlar tayyorlash respublikaning 10 ta mahalliy oliy ta'lim muassasasi, 2 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiallari hamda 8 ta professional ta'lim muassasasi orqali amalga oshiriladi. Har yili minglab xodimlar malaka oshiradi, yuzlab mutaxassislar xorijiy davlatlarda tayyorlanadi, yangi bitiruvchilar ishga qabul qilinadi. Shu bilan birga, tarmoqda yuqori malakali muhandislar, zamonaviy raqamli texnologiyalar, BIM, GIS, intellektual transport tizimlari bilan ishlay oladigan mutaxassislar yetishmasligi, ishchi kasblar bo'yicha kasbiy sertifikatatsiya tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi muammolari mavjud.

Texnologik rivojlanish va standartlashtirish yo'l xo'jaligida sifat va samaradorlikni oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. So'nggi yillarda avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ta'mirlash bo'yicha o'nlab standart va me'yoriy hujjatlar ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ishlab chiqildi. Mavjud asfalt-beton zavodlarida yangi turdagi chaqiqto'sh mastikali asfalt-beton ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, yo'llarning xizmat muddati sezilarli darajada uzaytirildi. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda 3D mobil skanerlar, deflektometrlar, georadarlar kabi zamonaviy texnikalar qo'llanilib, yo'l qoplamasining fizik xossalarini baholash, yer osti kommunikatsiyalarini aniqlash va rekonstruksiya xarajatlarini optimallashtirish imkoniyati yaratildi. Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, ishlarni bajarish va qabul

qilishda yangi “hajm uslubi” hamda yakunlangan obyektlar bo'yicha uch yillik kafolatli xizmat mexanizmlari joriy etildi.

Raqamlashtirish tarmoqni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Avtomobil yo'llarining texnik holatini baholash va monitoring qilish uchun Yagona onlayn ma'lumotlar bazasi yaratilib, yo'llarning 42 ta texnik ko'rsatkichi real vaqt rejimida kiritilmoqda. Natijada yo'llarning holatini onlayn baholash, ta'mirlash ishlarini shaffof va aniq rejalashtirish imkoniyati yaratilmoqda. Yuk avtomobillarining vazn va hajm parametrlarini avtomatik nazorat qiluvchi WIM tizimlari joriy etildi. Yo'l xo'jaligi korxonalaridagi minglab maxsus texnika va avtotransport vositalariga GPS kuzatuv qurilmalari o'rnatilib, ularning faoliyati yagona elektron bazada monitoring qilinmoqda. Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda “Toshkent–Andijon” yo'nalishidagi Qamchiq dovoni hududida intellektual transport tizimi joriy etilmoqda. Shuningdek, Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatini to'liq raqamlashtirish maqsadida “Yagona elektron platforma” ishlab chiqilib, loyiha boshqaruvi, texnik nazorat, moliyaviy monitoring va aktivlarni boshqarish jarayonlari yagona tizimga integratsiya qilinmoqda.

Tarmoqning kuchli tomonlari sifatida davlat siyosati bilan qo'llab-quvvatlanishi, xalqaro moliya institutlari ishtirokining kengayishi, normativ-huquqiy bazaning yangilanishi va raqamlashtirish jarayonlarining boshlangani qayd etiladi. Shu bilan birga, zaif tomonlar ham mavjud: kadrlar sifati va malakasi bo'yicha hududlar kesimida nomutanosiblik, infratuzilmaning notekis rivojlanganligi, eski yo'l fondining katta ulushi, ayrim loyihalarda texnik nazorat samaradorligining yetarli darajada bo'lmasligi. Imkoniyatlar qatoriga tranzit salohiyatini oshirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, ekologik toza va uzoq xizmat qiluvchi yo'l materiallarini joriy etish, xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimlarini yaratish kiradi. Xavflar sifatida tashqi moliyalashtirishga qaramlik, iqlim o'zgarishi va ekstremal ob-havo sharoitlari, texnologik yangilanishning sekinlashuvi, malakali kadrlarning boshqa sohalarga migratsiyasi ko'rsatiladi.

Uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari bir necha strategik yo'nalishlarda jamlanadi: yo'l xo'jaligini to'liq raqamli boshqaruv tizimiga o'tkazish; kadrlar tayyorlash va malakasini milliy va tarmoq malaka ramkalari asosida standartlashtirish; xalqaro transport yo'laklari doirasida yuqori toifali avtomagistrallarni rivojlantirish; innovatsion va ekologik yo'l materiallarini keng joriy etish; intellektual transport tizimlari orqali xavfsizlikni oshirish; davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorni infratuzilmaga faol jalb qilish.

Xulosa qilib aytganda, avtomobil yo'llari xo'jaligi O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy o'sishi, hududiy rivojlanishi va xalqaro integratsiyasining tayanch infratuzilma tarmog'i hisoblanadi. So'nggi yillarda boshqaruv tizimi modernizatsiya qilindi, investitsiyalar hajmi oshirildi, texnologiyalar yangilandi, raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun

kadrlar malakasini chuqurlashtirish, raqamli boshqaruvni to'liq joriy etish, innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

#### 4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

| T/r | Lavozim va kasblar kodi | Lavozim va kasblar nomi                                                                                                     |
|-----|-------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1   | 11111010                | O'zbekiston Respublikasi Qo'mita raislari va o'rinbosarlari                                                                 |
| 2   | 11122019                | Qo'mita raisi yordamchisi, maslahatchisi                                                                                    |
| 3   | 11200010                | Direktor va o'rinbosarlari                                                                                                  |
| 4   | 11200017                | Ilmiy-tadqiqot instituti direktori va o'rinbosarlari                                                                        |
| 5   | 11200023                | Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari                                                        |
| 6   | 11200040                | Tadqiqot, konstruktorlik va loyiha tashkilotlari direktori (boshlig'i) va o'rinbosarlari                                    |
| 7   | 13211014                | Bosh muhandis                                                                                                               |
| 8   | 13211015                | Bosh muhandis-mexanik                                                                                                       |
| 9   | 13211018                | Bosh texnik rahbar                                                                                                          |
| 10  | 13211022                | Ishlab chiqarish bo'yicha direktor                                                                                          |
| 11  | 13211024                | Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash bo'limi boshlig'i                                     |
| 12  | 13211025                | Ishlab chiqarish sanoati sohasida boshqarma (bo'lim, bo'linma) boshlig'i (mudiri)                                           |
| 13  | 13211026                | Ishlab chiqarish sanoatida (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri) |
| 14  | 13211027                | Ishlab chiqarish sanoatida laboratoriya boshlig'i (mudiri)                                                                  |
| 15  | 13211028                | Ishlab chiqarish sanoatida usta                                                                                             |
| 16  | 13211034                | Mexanika-ta'mirlash ustaxonasi boshlig'i                                                                                    |
| 17  | 13211039                | Tadqiqot yoki loyiha tashkiloti brigadasi rahbari                                                                           |
| 18  | 13211040                | Ta'mirlash ustaxonasi (ta'mirlash-mexanik ustaxonasi) boshlig'i                                                             |
| 19  | 13211041                | Ta'mirlash ustaxonasi boshlig'i (mudiri)                                                                                    |
| 20  | 13211043                | Texnik rahbar                                                                                                               |
| 21  | 13211045                | Xavfsizlik xizmati boshlig'i (obyekt, uchastka)                                                                             |
| 22  | 13230001                | Bosh arxitektor                                                                                                             |
| 23  | 13230002                | Bosh geodezist (qurilishda)                                                                                                 |
| 24  | 13230002                | Bosh geodezist (qurilishda)                                                                                                 |
| 25  | 13230003                | Bosh gidrogeolog (qurilishda)                                                                                               |
| 26  | 13230007                | Loyiha bosh arxitektori                                                                                                     |
| 27  | 13230008                | Loyiha bosh dizayneri (qurilishda)                                                                                          |
| 28  | 13230009                | Loyiha bosh konstruktori (qurilishda)                                                                                       |
| 29  | 13230010                | Loyiha bosh muhandisi (qurilishda)                                                                                          |
| 30  | 13230014                | Qurilish maydoni boshlig'i (boshqaruvchisi)                                                                                 |
| 31  | 13230015                | Qurilish uchastkasi boshqaruvchisi                                                                                          |

|    |          |                                                                                                             |
|----|----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 32 | 13230016 | Qurilishda (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri) |
| 33 | 13230017 | Qurilishda boshqarma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)                                                            |
| 34 | 13230017 | Qurilishda boshqarma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)                                                            |
| 35 | 13230018 | Qurilishda departament direktori (boshlig'i)                                                                |
| 36 | 13230019 | Qurilishda laboratoriya boshlig'i (mudiri)                                                                  |
| 37 | 13242012 | Bosh mexanik (transport)                                                                                    |
| 38 | 13245001 | Avtokolonna boshlig'i                                                                                       |
| 39 | 13245010 | Ko'prik qurilishi boshlig'i                                                                                 |
| 40 | 13245034 | Yo'l-qurilish ishlarini nazorat qilish sohasida boshqarma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)                       |
| 41 | 21422003 | Yo'l-qurilish ishlarini nazorat qilish bo'yicha muhandis                                                    |
| 42 | 24112002 | Buxgalter                                                                                                   |
| 43 | 24121005 | Moliyachi                                                                                                   |
| 44 | 24232002 | Kadrlar bo'yicha muhandis                                                                                   |
| 45 | 24323001 | Fuqarolar murojaatlari bilan ishlash bo'yicha professional- mutaxassis                                      |
| 46 | 26211005 | Arxivchi                                                                                                    |
| 47 | 43233017 | Osma dor yo'li mutaxassisi                                                                                  |
| 48 | 71120003 | Ko'prikchi                                                                                                  |
